

MAHMUD QOSHG'ARIYNING TURKIY DIALEKTLAR HAQIDAGI QARASHLARI TAHLILI

*Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi
Pulatova Guldona*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Mahmud Qoshg'ariyning Devoni lug'oti-turk asarida qo'llanilgan dialektlar haqidagi qarashlari tahlili va ularning tavsifi ma'nolari qo'llanish davrlari haqida fikr mulohazalar yuritiladi.

Kalit sózlar: turkiy dialektlar, misollar, maqollar, tavsiflar, tahlillar, sharhlar

Kirish

„Devonu lug'otit turk“ (arabcha: الترك لغات ديوان; tarjimasini „Turkiy so'zlar devoni“) — Mahmud Koshg'ariyning turkiy tillar haqidagi qomusiy asari (1071—72).[1][2] Bu asarda 11-asrning 2-yarmida Markaziy Osiyoda va G'arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug' va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geogr.si, metrologiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirilgan. „Devonu lug'otit turk“ning qo'lyozmasi 1914-yil Turkiyaning Diyorbakr sh.dan topilgan. 319 sahifali bu qo'lyozma hozirgi Istanbulda saqlanadi. Bu nusxa „D.t.l.“ yozilganidan salkam 200 yildan keyin, ya'ni Mahmud Koshg'ariyning o'z qo'li bilan yozilgan nusxadan 1266-yilda kotib Muhammad ibn Abu Bakr ibn Fotihal-Soviy aldamashqiy tomonidan ko'chirilgan.[1] Devonu lug'otit turk“ arab tilida yozilgan, 8 mingdan ortiq turkiy so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish maqsadida arabcha hara-katlar (harflardagi ost-ust ishoralar)dan foydalanilgan. Bunda, albatta, muallif ancha qiyinchilikka uchragan, chunki arabcha harf va alif, vov, yo ishoralari bilan turkiy tovushlarni berib bo'lmay edi. Turkiy tildagi cho'ziq va qisqa unlilar, yumshoq va qattiq tovushlar uchun Mahmud Koshg'ariy maxsus belgilar (harakatlar)ni qo'llaydi yoki so'z boshidagi cho'ziqlikni ikki alif bilan ko'rsatadi yoki 2 xil talaffuz qilinadigan so'zlarga 2 xil ishora qo'yadi: azuqluq, eritmak so'zlaridagi 3 va R harflari ustiga ham kasra, ham damma ishorasini qo'ygan, demak, bu so'zlar o'sha davrda ikki xil talaffuz etilgan: azmquluq — azuqluq, eritmak — erutmak kabi. Arabcha harf bilan ko'rsatish mumkin bo'lmagan turkiy talaffuzni „Devonu lug'otit turk“da izohlab, ta'riflab o'tgan. „Devonu lug'otit turk“da, avvalo, otlar, so'ng fe'llar izohlanadi. So'zlar tartibi ularning tarkibidagi harflarning orta borishiga (2 harfdan 7 harfgacha) qarab amalga oshirilgan. Mahmud Koshg'ariy „Devonu lug'otit turk“ga o'zi tuzgan dunyo xaritasi (dunyoning doira shaklidagi tasviri)ni ilova qilgan. Xaritada mamlakat, shahar, qishloq, tog', cho'l, dovon, dengiz, ko'l, daryo va h.k.ning nomlari yozilgan. Xaritaga yozilmay qolgan bir qancha nomlar asar matnida izohlangan. Harita, asosan, hozirgi

Sharqiy yarim sharga to‘g‘ri keladi. Asarda 11-asrdagi shaharlar, qishloqlar, dengiz, ko‘llar, turkiy qabilalar va urug‘lar haqida, urug‘larning ijtimoiy ahvoli, kelib chiqishi, nomlanishi, ichki urug‘ va toifalari, ularning joylanishi, urf-odatlar, til xususiyatlari haqida batafsil ma‘lumotlar beriladi. Bundan tashqari, hayvonot va o‘simliklari, ularning nomlanishiga to‘xtalib o‘tadi, astronomik ma‘lumotlar, burj va muchal haqida ham ma‘lumotlar bor. „Devonu lug‘otit turk“da ayniqsa qabila va urug‘ tillariga oid lingvistik ma‘lumotlar ancha batafsil berilgan. Bunda har so‘zning ma‘nolari (polisemiya, omonim, sinonim, antonim va arxaik so‘zlar) chuqur tahlil qilinadi, ayrim so‘zlarning etimologiyasiga to‘xtalib o‘tadi. Tovushlar (fonemalar)ning taxlili ancha mukammal: unli va undosh fonemalar, cho‘ziq va qisqa unlilar, ularning urug‘ tillaridagi talaffuzi va orfografiyasi, tildagi fonetik hodisa va qonuniyatlar batafsil izohlangan. Morfologiya sohasida so‘z turkumlarini, davr an‘anasiga ko‘ra, 3 so‘z turkumiga: fe‘l, ism, bog‘lovchiga bo‘lib, ularning yasaliş va turlanish yo‘llarini ko‘rsatib o‘tadi. „Devonu lug‘otit turk“da 250 dan ortiq maqol va matallar, o‘nlab she‘riy parchalar keltirilgan. V. V. Bartold „Devonu lug‘otit turk“dan o‘z ilmiy ishlarida keng foydalanganini sharqshunos S. Volin ko‘rsatib o‘tgan. Til-shunos olim V. I. Belyayev „Devonu lug‘otit turk“ haqida shunday yozadi: „Biz bu asarga nihoyatda yuksak baho berishimiz kerak, chunki u kitoblardan olib yozilmagan, balki jonli materialni shaxsan kuzatishga asoslangan... Muallif bergan ma‘lumotlar... arxeologik kashfiyotlar bu ma‘lumotlarning aksariyatini isbot etmoqda“. Nemis sharqshunosi K. Brokkelman „Devonu lug‘otit turk“ asarini 1928-yil nemis tiliga tarjima qildi. „Devonu lug‘otit turk“ qo‘lyozmasining fotonusxasi Istanbulda Kilisli Rifat (3 jildli; 1915—17) keyinchalik Besim Atalay tomonidan (3 jildli; 1939—41) turk tiliga tarjima qilinib, chop etilgan. „Devonu lug‘otit turk“ ning turk tilidagi keyingi qayta nashri 1957-yil amalga oshirildi. „Devonu lug‘otit turk“ ikkinchi bo‘lib o‘zbek tiliga tarjima qilinib, muhim izoh va tafsirlari bilan 1960—63-yillari Toshkentda „Fan“ nashriyotida 3 jildda chop etilgan. Bu tilshunos olim, filol. fanlari dori, prof. Solih Mutallibovning 35 yillik mehnati natijasi edi. Ushbu nashr faqat tarjima bo‘lmay, turkcha tarjimaga munosabat, baho, atamalar, shaxs nomlari, shahar va joy nomlariga izoh va tafsir hamdir. O‘zbekcha nashrining muqaddima qismida 11-asr filologlari, „Qutadg‘u bilig“ asari, Maxmud Koshg‘ariyning lingvistik qarashlari, turkiy qabilalar, ularning shakllanishi, bu urug‘ va qabilalar, tillarning hozirgi turkiy xalqlar va ularning tiliga munosabati, tarjima transkripsiyasi to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan. „Devonu lug‘otit turk“ o‘zbekcha nashrining oxirida turkiy urug‘, qabila, shaharlar va boshqalar to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlar bor, asarning har bir jildida havolalar berilib, unda uchragan so‘z va iboralar keng ta‘riflanadi, izohlanadi. O‘zbekcha nashrining muhim tomonlaridan biri, uning har bir jildi asosida tuzilgan ko‘rsat-kichdir. Unda „Devonu lug‘otit turk“da uchragan so‘zlar alifbo tarzida keltirilib, so‘zning o‘zbek va rus tilida

tarjimasini beriladi. Mazkur soʻzning „Devonu lugʻotit turk“ ning qaysi betlarida uchrashi (oldin oʻzbekcha, soʻng turkcha nashrlarining beti, satri) koʻrsatib oʻtiladi.

Asosiy qism

Mahmud Koshgʻariy, Yusuf Xos Hojib, Amir Arslon tarxon maʼlumotlaridan qoraxoniylar davri turkiy adabiy tiliga yetakchi dialektlar asos boʻlib xizmat qilganligi ayon boʻladi. Ushbu yozma adabiy til turk tili, xoqoniya tili, bugʻraxon tili, koshgʻar tili singari otlar bilan atalgan. XIII–XV asrlarda yuzaga kelib takomil topgan “chigʻatoy tili”, “chigʻatoy turkchasi” ana shu adabiy tilning davomida turadi. Bu kezlarda čığatay tili atamasi türkçä, türkî atamaları bilan yonma-yon qoʻllanilib, kitobiy adabiy tilni farqlash uchun ham xizmat qila boshladi. Abulgʻoziyning “Shajara-yi tarokima”da keltirgan quyidagi maʼlumotlari bunga dalildir. Tarixchi yozadi: *Hamma uluğlar ham äddî kişilär tüşünsün dep, men bu tarixni türkî til bilän aytdim. Türkîni ham andağ aytup-men-kim, beş yaşar oğlan tüşünür. Tüşüniş asan bolsun dep men čığatay türkîsidin, fârsîça va arabçadîn bir dâna ham söz qoşmadim. Bu oʻrinda čığatay türkîsi deyilganda XV–XVI asrlardagi kitobiy til koʻzda tutilgan. Ushbu atama ham qoraxoniylar davri manbalarida qoʻllangan “bugʻraxon tili”, “xoqoniya tili”, “koshgʻar tili” atamaları singari adabiy tilni anglatadi. Temuriylar zamonida Mavoraunnahr va Xuroson adabiy, madaniy muhitida shakllangan adabiy til (“chigʻatoy turkiysi”) shu oʻlkadagina emas, balki butun turk-musulmon muhitining kitobiy adabiy tili darajasiga koʻtarilgan edi. Mahmud Koshgʻariy oʻz asarida turkiy qavmlarning yerlashuvi, bu oʻlkalardagi xalqlarning tillari toʻgʻrisida ham keng maʼlumot beradi. Asarda taʼkidlanishicha, Runga yaqin birinchi qabila pāčänäk, soʻng qiwčaq, oğuz, yämäk, başğirt, basmîl, qay, yabaqu, tatar, qırqız keladi. Qırqızlar Chin yaqinidadir. Bu qabilalarning yeri Rum yonidan kun chiqargacha choʻzilgan. “Devonu lugʻatit turk”ka kiritilgan xaritada koʻrsatiluvicha, bu yurtlar Gʻarbdan Sharqqa tomon choʻzilgan. Muallif yana davom etadi: Soʻng čigil, soʻng tuxsî, soʻng yağma, soʻng iğraq, soʻng čaruq, soʻng čumul, soʻng uyğur, soʻng tañut, soʻng xitay. Xitoy – Chindir. Soʻngra tawğaç, bu Mochindir (MK.I.64). “Devonu lugʻatit turk” asariga kiritilgan xaritada bu qabilalarning yurtlari janub bilan shimol oʻrtasida berilgan. Turk ellarining chegaralari toʻgʻrisida ham Mahmud Koshgʻariyning oʻz qarashlari bor. Chunonchi, u Qaz soʻziga izoh berar ekan, yozadi: “Qaz – Afrasiyob qizining nomi... Baʼzilar turk shaharlari chegarasi Marvash – Shohijondan boshlanishini soʻzlaydilar. Chunki Qazning otasi Toña Alp Er – Afrasiyobdir. U Tahmurasdan uch yuz yil keyin Marvni bino qilgan. Baʼzilar butun Mavoraunnahrni turklar oʻlkalaridan deb hisoblaganlar. U Yankänd dan boshlanadi. Uning bir oti Düzrujîn dir. U sariqligiga koʻra, mis shahri demakdir. Bu Buxoroga yaqindir. Bu yerda Afrasiyobning qizi – Qazning eri SİYAVUŞ oʻldirilgan. Majusiy-otashparastlar har yili bir kun bu yerga kelib, SİYAVUŞ oʻlgan joy atrofida yigʻlaydilar. Mollar soʻyib, qurbonlik qiladilar. Soʻyilgan mol qonini uning mozori tepasiga toʻkadilar. Ularning odatlari shunday. Butun Mavoraunnahr, Yankänd*

dan Sharqqacha bo‘lgan o‘lkalarni turk shaharlaridan deb hisoblashning asosi shuki, Samarqand –Semizkänd, Taškänd – Šaš, Özkänd, Tünkänd nomlarining hammasi turkchadir. Känd turkcha shahar demakdir. Ular bu shaharlarni qurdilar va shunday nom qo‘ydilar. Hozirgacha ham shunday kelmoqda. Bu yerlarda forslar ko‘paygach, so‘ng ular Ajam shaharlari kabi bo‘lgan. Hozir turk o‘lkalarining chegarasi Äbisgün dengizi bilan o‘ralgan. Rum o‘lkasidan va Özjänd dan Chingacha cho‘ziladi. Uzunligi besh ming farsax, eni uch ming farsax, hammasi sakkiz ming farsaxdir”(MK.III.163–164). Mahmud Koshg‘ariyning “Känd turkcha shahar demakdir. Ular bu shaharlarni qurdilar va shunday nom qo‘ydilar. Hozirgacha ham shunday kelmoqda. Bu yerlarda forslar ko‘paygach, so‘ng ular Ajam shaharlari kabi bo‘lgan”degan ma‘lumotlari Mavoraunnahrning sanab o‘tilgan o‘lkalari turklar tomonidan bunyod etilgani, keyinchalik bu yerlarda forsiyzabonlar nufuzining ham oshganligi, joy otlarining esa forsha atab ketilganidan dalolat beradi (İncüögüz – Sirdaryā, Keš (~Käš) – Shahrīsabz singari joy otlarining yuzaga kelishi bunga misol)Mahmud Koshg‘ariy yuzyilliklar osha Markaziy Osiyo tuprog‘ida yashab kelgan etnik guruhlar va ularning tillari to‘g‘risida ham aniq-taniq ma‘lumot keltiradi. Jumladan, u mazkur o‘lkalarda yashovchi soğdaq, kändäk, arğularni “ikki tilda so‘zlashuvchilar” deya ta’kidlaydi. Uning yozishicha, xo‘tanliklar, tubutlar va tangutlarning ba‘zilari kabi ikki tilda so‘zlaydiganlar va boshqa shaharlarga borib yurganlar tilida buzuqlik bor. Bular bu yerlarga so‘ng kelganlar (MK.I.65).[2]Mochinliklar va chinliklarning ayriча tillari bor bo‘lsa ham, shaharliklar turkchani yaxshi biladilar. Olimning yana ta’kidlashicha, ularning turklar bilan yozishmalari turkchadir.Mahmud Koshg‘ariyning yozishicha, Balasağun, Tiraz, Mädinätülbäyzä shaharlarining xalqlari sug‘dcha va turkcha so‘zlaganlar (MK.I.66). Ushbu fakt ikki masalaga e’tibor qaratishni talab etadi: birinchidan, bu o‘rinda shu o‘lkalarda ikki tilda so‘zlashuvchi ikki xalq yashaganligi ko‘zda tutilmoqda; ikkinchidan esa bu o‘lka xalqlarining (soğdaq,kändäk, arğularning) ikki tilliligi. Ma‘lumki, ko‘k turk, uyg‘ur xoqonliqlari va qoraxoniylar davrida bu o‘lkalarda turklar bilan birga savdo yohud boshqa ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta’sirida kelib o‘rnashib qolgan sug‘dlar ham yashar edi. Mahmud Koshg‘ariy soğdaq (ya’ni sug‘d) xalqini ikki tilda so‘zlashuvchilar deb ta’kidlaganda (MK.I.65) ko‘proq shu o‘lkalardagi sug‘dlarni ko‘zda tutgan ko‘rinadi.[3]

Xulosa

Xulosa qilib aytganda,Devoni lug‘atit turk" turkiy tildagi so‘z yasalişini chuqur o‘rganish imkonini beruvchi keng qamrovli asardir. Lug‘at turkiy til haqidagi tushunchamizni shakllantirishga yordam berdi va uning so‘z boyligini kengaytirishda muhim rol o‘ynadi. Kitob turkiy til va tilshunoslikni o‘rganishga qiziquvchilar uchun muhim manba hisoblanadi. Qoshg‘ariyning "Devoni lug‘atit turk" asari turkiy tilshunoslik uchun qimmatli manba bo‘lib, turkiy tilni shakllantirgan so‘z yasalişini, tuzilişini va ijtimoiy lingvistik omillar haqida tushuncha beradi. Uning hissasi boshqa

tilshunoslar va akademiklarga ta'sir ko'rsatdi va uning tadqiqoti turkiy tilshunoslik sohasidagi zamonaviy tadqiqotchilar uchun muhim ma'lumotnoma bo'lib qolmoqda. Asardagi dialektlar har qaysi jihatdan hozirgi davr bilan solishtirganda hozirgacha yashab kelayotgan lahjalarimizda ishlatilayotgan dialektik birlik tamoyillariga mos va xosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Suxanberdiyeva, S. (2022). "DEVONU LUG'OTIT TURK" ASARINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLAR. Journal of Integrated Education and Research, 1(5), 248-252.
2. Usmonov, A., & Mizomova, F. (2021). O'ZBEK LEKSIKOGRAFIYASI XUSUSIDA. FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI,
3. Ismatova, V. S. A. (2022). "DEVONU LUG'OTIT TURK" DAGI MAVHUM OTLARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(4), 311-316.